

УДК: 338.48:33 М (575.1)

Bekmurodova Laylo Tursunmamatovna

**Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot
instituti tayanch doktoranti**

lajlobekmurodova@gmail.com, +99899 882-21-03

ORCID: 0009-0009-1009-9706

O‘ZBEKISTONNING XALQARO MEHMONDO‘STLIK INDUSTRIYASIGA INTEGRATSIYALASHUVIDA DAVLAT ISLOHOTLARINING O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonning global mehmondo‘stlik industriyasiga integratsiyalashuvi jarayonida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi muhimligini haqida so‘z yuritiladi. Mehmonxona va turizm sohasi O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, mamlakat bu boradagi imkoniyatlarini rivojlantirish tarafdori. Muallif tomonidan O‘zbekiston hukumati tomonidan mehmondo‘stlik industriyasini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘rilayotgan turli chora-tadbirlar, jumladan, soliq imtiyozlari, moliyaviy yordam, infratuzilmani rivojlantirish va ixtisoslashtirilgan ta‘lim dasturlarini yaratish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan va ularning O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishini tahlil qilingan. Xulosa o‘rnida O‘zbekistonning jahon mehmondo‘stlik industriyasiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvida davlat tomonidan kelgusida qo‘llab-quvvatlanishi muhimligini ta‘kidlab, bu boradagi sa’y-harakatlarni kuchaytirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm, mehmondo‘stlik industriyasi, davlat islohotlari, soliq imtiyozlari, moliyaviy yordam, infratuzilma, ta‘lim dasturlari.

Аннотация. В данной статье говорится о важности государственной поддержки в процессе интеграции Узбекистана в мировую индустрию гостеприимства. Гостиничный и туристический бизнес является важным компонентом экономики Узбекистана, и страна стремится развивать свои возможности в этом отношении. Автор рассмотрел различные меры, принимаемые правительством Узбекистана для поддержки индустрии гостеприимства, включая налоговые льготы, финансовую помощь, развитие инфраструктуры и возможность создания специализированных образовательных программ, а также проанализировал их использование в условиях Узбекистана. В заключении была подчеркнута важность дальнейшей поддержки со стороны государства в успешной интеграции Узбекистана в мировую индустрию гостеприимства, а также даны рекомендации по усилению усилий в этом направлении.

Ключевые слова: Туризм, индустрия гостеприимства, государственные реформы, налоговые льготы, финансовая помощь, инфраструктура, образовательные программы.

Abstract. This article talks about the importance of government support in the process of integrating Uzbekistan into the global hospitality industry. The hotel and tourism business is an important component of the economy of Uzbekistan, and the country is committed to developing its capabilities in this regard. The author reviewed various measures taken by the government of Uzbekistan to support the hospitality industry, including tax incentives, financial assistance, infrastructure development and the possibility of creating specialized educational programs, and also analyzed their use in the conditions of Uzbekistan. In conclusion, the importance of further support from the state in the successful integration of Uzbekistan into the global hospitality industry was emphasized, as well as recommendations for strengthening efforts in this direction.

Key words: Tourism, hospitality industry, government reforms, tax incentives, financial assistance, infrastructure, educational programs.

Kirish. Bugungi globallashtirilgan dunyoda xalqaro mehmondo‘stlik industriyasiga integratsiyalashuv ko‘plab mamlakatlar uchun muhim vazifa hisoblanadi. Tarixiy va madaniy diqqatga sazovor joylarga boy O‘zbekiston mehmondo‘stlik industriyasini rivojlantirish va

xalqaro sayyohlarni jalb etishga intilmoqda. Bu jarayonda zarur resurslar bilan ta'minlash, soha rivoji uchun qulay muhit yaratish orqali davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani asosiy o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi turizm sohasi milliy iqtisodiyotning strategik jihatdan muhim bo'g'ini hisoblanadi. Mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy go'zalliklari, va mehmondo'stligi turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha, keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasi, hududlarning tezkor rivojlanishi va xalqaro maydonda O'zbekistonning ijobiy imidjini mutahkamlashga qaratilgan. Turizm va mehmondo'stlik industriyasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tizimi turizmning milliy xavfsizlik, davlat boshqaruvini huquqiy tartibga solish va atrof-muhit bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida" gi O'RQ-549-sonli qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi "Mehmonxona xo'jaligini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlar to'g'risida"gi VM-433-sonli qarorlarining qabul qilinishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-sonli qarorida 2023-yil 1-oktyabrga qadar mamlakatimiz mehmonxonalari va ularning holatini inventarizatsiyadan o'tkazish, kamida 50 ta mehmonxona va "uch yulduzli" 200 tagacha xorijiy konsalting kompaniyalarini jalb qilgan holda "to'rt yulduz" berish chora-tadbirlarini ko'rish vazifasi belgilanganligi natijasida, O'z DST 3296:2023 "Turistik xizmatlar. Turar joy. Nuqtalarni tasniflash tizimi" nomli yangi standart ishlab chiqilishi, bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238 sonli qaroriga muvofiq mehmonxonalar sonini ko'paytirish va ularda xizmat ko'rsatish sifatini oshirishni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlash maqsadida, 2024-yil 1-yanvardan boshlab 2026-yil 31-dekabrga qadar foydalanishga topshirilishi shart bo'lgan, balandligi kamida besh qavatli yangi mehmonxonani qurish (rekonstruktsiya qilishdan tashqari) va jihozlash uchun investorlar tomonidan xarajatlarning bir qismini qoplash tizimi joriy etilishi kabi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, ushbu sohani rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri ekanligini anglatadi.

Turizm iqtisodiy faoliyat sohasi sifatida katta ahamiyatga va bir qator xarakterli xususiyatlarga ega. U shaxs, butun jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi va mikro va makroiqtisodiy darajada daromad manbai hisoblanadi. Mehmondo'stlik industriyasi qo'shimcha ish o'rinlari yaratishning asosiy omillaridan biriga aylanib bormoqda, yo'l va mehmonxona qurilishini jadal rivojlantirish, barcha turdagi avtotransport vositalarini ishlab chiqarishni rag'batlantirish, xalq hunarmandchiligi va milliy madaniyatni saqlashga hissa qo'shmoqda. Shuningdek xizmat ko'rsatishning ushbu tarmog'i yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda, tashqi savdo balansini faollashtirishda muhim rol o'ynaydi. Jahon iqtisodiyotida eng jadal rivojlanayotgan sanoatning o'рни muttasil oshib bormoqda.

Masalan, pandemiyadan oldingi davrda Fransiya tashrif buyurgan sayyohlar soni 90 millionga yaqinlashdi. Bu sektor har yili davlatga 50-60 milliard yevro daromad keltiradi. Bu ko'rsatkichlar dunyoda mutlaqo rekord ko'rsatkichdir.

O'zbekiston ham yuqori sayyohlik salohiyatiga ega. Respublikada 8,4 mingta madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ulardan 209 tasi to'rtta muzey shaharlari (Xiva shahridagi Ichan qal'a, "Buxoro shahrining tarixiy markazi", "Shahrisabz shahrining tarixiy markazi") tarkibiga kiradi. va "Samarqand – madaniyatlar chorrahasi") YuNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan va 104 ta muzey va galereya mavjud. Respublika ko'plab xorijiy nashrlar tomonidan jozibador va qiziqarli yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan va xalqaro reytinglarda tobora yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI. So'nggi o'n yilliklarda turizm va mehmondo'stlik industriyasini rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashining roli faol ilmiy tadqiqotlar ob'ektiga aylandi. Xorijiy olimlarning tadqiqotlari turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning turistik soha o'sishini rag'batlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. D.L. Edgell, J.R.Swanson, M.D.Allen, G.Smith[4] lar o'z asarlarida turizm sohasida davlat siyosatining evolyutsiyasini ko'rib chiqib, turli davlat organlarining harakatlarini muvofiqlashtirish va integratsiyalashtirilgan yondashuvning zarurligini asoslab berganlar. R.Sharpli[14] o'z tadqiqotida mehmonxona biznesining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishining turli modellari va ularning barqaror turizm rivojlanishiga ta'sirini tahlil qiladi, samarali davlat siyosati ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni hisobga olish kerakligini ta'kidlaydi.

Rossiyalik olimlar ham o'z ilmiy ishlarida mehmondo'stlik industriyasini iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega tarmog'i sifatida ko'rib chiqqanlar. V.V.Kovalenka asarlarida turizm va mehmondo'stlik industriyasini rivojlantirishga qaratilgan davlat qo'llab-quvvatlash choralari tahlil qiladi va davlat idoralari o'rtasidagi hamkorlik va mintaqaviy tashabbuslarning ahamiyatini ta'kidlaydi[7]. E.V.Trofimova tadqiqotlari ijtimoiy turizmni qo'llab-quvvatlovchi dasturlarning samarasini baholashga qaratilgan[13] E.E.Gasanov turizm tashkilotlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning amaldagi mexanizmini ishlab chiqish va takomillashtirish maqsadida kompleks chora-tadbirlarni taklif qilgan[5].

Turizm va mehmondo'stlik industriyasini davlat tomonidan tartibga solishning mohiyati va mazmuni, vositalari va usullari, turizm industriyasi sub'ektlari faoliyati, turizmni tartibga solish tamoyillari, ushbu sohada davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, turizmni davlat tomonidan tartibga solish sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, turizm industriyasini tartibga solishning asosiy vositalari va yo'nalishlari bilan bog'liq muammolarning ilmiy asoslari M.Q.Pardaev[10], M.M.Ramadanova[11], I.S.Tuxliev[12], A.N.Norchaev[9] asarlarida tadqiq etilgan. Turizm sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, turizm infratuzilmasi, turizmni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash M.T.Alieva[2], X.M.Mamatqulov[8], M.T.Alimova[3] larning ilmiy asarlarida bayon qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. O'zbekistonning xalqaro mehmondo'stlik industriyasiga integratsiyalashuvida davlatning o'rnini mavzusini o'rganishdan maqsad turizmni rivojlantirishga qaratilgan mavjud davlat dasturlari va tashabbuslarini o'rganish, bu dasturlarning mamlakatning turistik jozibadorligini oshirishdagi samaradorligini tahlil qilish, integratsiya jarayonlaridagi asosiy to'siq va muammolarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida sifatli, miqdoriy, qiyosiy va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Mehmondo'stlik industriyasi jahon iqtisodiyotida asosiy o'rin tutadi, millionlab ish o'rinlarini yaratadi va turli mintaqalar rivojiga hissa qo'shadi. Globallashtirish sharoitida ushbu sohaga integratsiyalashuv iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochishi mumkin. Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekistonning global mehmondo'stlik sanoatiga integratsiyalashuvida davlat ko'magining rolini o'rganish va muvaffaqiyatga erishish uchun mumkin bo'lgan chora tadbirlarni taklif qilishdir.

2023-yilga borib turizm sektori jahon yalpi ichki mahsulotiga qo'shgan hissasini 15,5 trillion dollarga etkazishi va jahon iqtisodiyotining 11,6 % ini tashkil etishi va butun dunyo bo'ylab 430 million kishini ish bilan ta'minlashi kutilmoqda deb taxmin qilingandi. 10 yil ichida mehnatga layoqatli aholining deyarli 12 % turizm sohasida band bo'ladi[15].

Respublikamizda joriy yilda 11 million xorijiy sayyohni jalb etish va turizm eksportini 2,5 milliard dollarga etkazish rejalashtirilgan. Ushbu sohaga investisiya qilingan har bir dollar kelajakda 3-4 baravar daromad keltiradi. Har bir yangi ish o'rnini boshqa tarmoqlarda yana 2 ta ish o'rnini yaratilishiga sabab bo'ladi. O'zbekistonning turizm sohasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan O'zbekiston milliy iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri sifatida belgilangan [1]. Qisqa vaqt ichida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan izchil siyosat tufayli mamlakatimizga xorijlik sayyohlar oqimi keskin ko'paydi, turistik infratuzilma ob'ektlari soni ko'paydi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda turizm va mehmondo'stlik industriyasining asosiy ko'rsatkichlari

№	Mehmondo'stlik industriyasining ko'rsatkichlari	asosiy yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
1	Turistlar soni (millionda)		2.7	5.3	6.7	1.5	1.9	5.2	6.6
2	Mehmonxonalar soni		769	1096	2163	2489	4015	5237	5526
3	Mehmonxonalardagi xonalari soni		18588	24646	33388	37455	47619	59736	63486
4	Umumiy ovqatlanish korxonalar soni		12831	13344	15954	15616	16052	17396	17500
5	Umumiy ovqatlanish korxonalaridagi o'rinlar soni		533620	586751	733642	624501	700411	681349	877300

Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining tegishli ma'lumotlaridan foydalanib tuzilgan [16]

Samarqand shahrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Jahon sayyohlik tashkiloti (YUNVTO) Bosh Assambleyasining 25-sessiyasining o'tkazilishi O'zbekistonning ushbu sohadagi o'rni va ahamiyatining o'ziga xos e'tirofi bo'ldi.

Soha mutaxassislarining prognozlariga ko'ra, joriy yilda O'zbekistonga 7 million xorijiy sayyoh keladi, kelasi yilda esa bu ko'rsatkich 10 millionni tashkil etishi kutilmoqda. Mamlakatning turistik brendlarini xalqaro miqyosda faol targ'ib qilish bilan bir qatorda transport infratuzilmasini rivojlantirish ham sayohatga ishqibozlar oqimiga xizmat qilmoqda. Bugungi kunga qadar 12 ta milliy aviatashuvchiga ishlash uchun ruxsatnomalar berildi, ular parvozlar geografiyasini sezilarli darajada kengaytirdi. Xalqaro va milliy aviatashuvchilar o'rtasidagi raqobat esa parvozlar narxini dinamik ravishda pasaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, 2023-yilda O'zbekistonga uchuvchi xorijiy aviakompaniyalar soni 37 taga yetdi. Bir so'z bilan aytganda, jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan mehmondo'stlik sohasi iqtisodiyotning muhim tarmog'iga aylanib, ish o'rinlari yaratishda katta rol o'ynamoqda, va xalq farovonligini oshirishga hissa qo'shadi. Asosiysi, O'zbekistonning barqaror va jozibali davlat sifatidagi imidjini targ'ib qilish.

O'zbekistonning xalqaro mehmondo'stlik industriyasiga integratsiyalashuvi, aynan dastlabki bosqichda davlatning faol ishtirokini talab qiladi. Turizm va mehmondo'stlik industriyasining davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi natijasida mehmonxona va turizm sohasidagi kompaniyalar uchun raqobatbardoshlikni oshiradi, sifat standartlarini yaxshilaydi va mamlakatning jahon bozoriga chiqishini osonlashtiradi. Ushbu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bir necha to'siqlar va muammolarni sanab o'tamiz, bular:

- **Infrastruktura muammolari** – Mamlakatda taransport, aloqa va turizm infrotuzilmasi etarli darajada rivojlanmaganligi turistlar uchun noqulayliklar keltirib chiqarishi va mehmonxona xizmatlarini etkazib berishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

- **Malakali kadrlar etishmasligi** – Turizm va mehmonxona sohasida ishlaydigan kadrlarning kasbiy malakasi va tajribasining talb darajasida emasligi xizmat ko'rsatish va mijozlarning qoniqish darajasiga ta'sir qiladi.

- **Viza cheklavlari** - Ko'p davlatlardan kelayotgan turistlar uchun viza olish jarayoni murakkab va vaqt talab qiladi. Ushbu xolat potensial turistlarni O'zbekistonga kelishdan qaytaradi.

- **Marketing va Reklama** – Mamlakatning turistik salohiyati to'g'risida xalqaro miqyosda etarli reklama va marketing kompaniyalari faoliyatining sustligi mamlakatning jahon bozorida tanilishiga to'sqinlik qiladi.

Xalqaro Turizm va Mehmondo'stlik industriyasiga muvaffaqiyatli integratsiyalashgan bir nechta xorijiy davlatlarning tajribasini misol tariqasida keltirip o'tishimiz mumkin. Bular :

Singapur – davlatning infrotuzilmaga qilgan investitsiyalari va strategik rejalashtirishlari orqali turizm sohasida katta muvaffaqiyatga erishgan mamlakatlardan biriga aylandi. Marina Bay

Sands va Sentosa Island kabi yirik turistik loyihalar amaliyotga tatbiq qilindi. Davlat tomonidan transport infrotuzilmasini yaxshilash va Singapore Tourism Board orqali turistik marketingga katta e'tibor qaratildi.

Birlashgan Arab Amirligi – ushbu mamlakatda 70 yillarda erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilish va davlat kompaniyalari bilan xorijiy investorlar o'rtasida qo'shma korxonalar tashkil qilishga ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha qonun qabul qilindi. Bu qonun asosida xorijiy investorlarga qo'shma korxonalarda kichik sherik sifatida investisiya kiritish huquqi berildi. Ular soliq to'lashdan 15 yilgacha ozod qilindi va davlat tomonidan er uchastkalariga huquqlariga kafolatlar berildi. Xorijiy investorlarga davlat tomonidan kapitalga nisbatan kafolatlar berildi, kompaniyalar daromadlarni chet elga olib chiqish huquqini oldi.

Islandiya – davlat yordami va strategik marketing orqali turizm sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Islandiyaning turizmni rivojlantirish strategiyasi asosan ekologik turizm va tabiiy yodgorliklarning tijoratlashtirilishiga qaratilgan. Iceland Tourism tashkiloti tomonidan xalqaro darajadagi marketing faoliyatlari olib borildi, turistlarga Islandiyaning noyob tabiiy manzaralari va imkoniyatlari haqida ma'lumot berish uchun reklamalar va tashviqot ishlari amalga oshirildi.

Janubiy Koreya – Janubiy Koreyaning turizmni rivojlantirish strategiyasi madaniy, tibbiy va biznes turizmiga yo'naltirilgan. Davlatning asosiy maqsadi – xalqaro turistlarni jalb qilish va ichki turizmni rivojlantirish. Koreya turizm sohasini rivojlantirish maqsadida bir qator strategik qarorlar qabul qilindi. Korea Tourism Organization (KTO) turizm siyosati va strategik rejalashtirishni muvofiqlashtirish va xalqaro turizmni jalb qilish uchun mas'ul bo'lgan.

Yuqorida sanab o'tilgan davlatlarning tajribalarini tahlil qilish va moslashtirish orqali mamlakatimiz turizm sohasini rivojlantirish va xalqaro bozorda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Quyidagi jadvalda davlat tomonidan olib boriladigan chora-tadbirlarning ayrim jihatlari tasniflab o'tilgan. (2-jadval)

2-jadval

O'zbekistonning xalqaro mehmondo'stlik industriyasiga integratsiyalashuvida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning tasnifi

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yo'nalishlari	Tavsifi	Chora-tadbirlar	O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar
Infrotuzilmani yaratish	Transport va turizm infrotuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish	Yangi aeroportlarni qurish, temir yo'llarni modernizatsiya qilish, avtomobil yo'llarni yaxshilash	"O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi tomonidan 12 ta Airbus A 320 va Airbus H 145 vertolyotlari xarid qilindi va qo'shni respublikalarga parvozlar soni ortdi. 6 ta xususiy aviakompaniya ishlay boshladi.
		Yangi mehmonxonalar, kurortlar va joylashtirish ob'ektlarini qurish Kommunal xizmatlarni yaxshilash (elektr ta'minoti, suv	2022-2023 yillar davomida 800 dan ortiq infrotuzilma loyihasi amalga oshirildi. Mehmonxona fondi 140 ming o'ringa ko'paytrildi. 70 ta yangi turistik yo'nalishlar ochildi. 884 ta sanitariya gigiena punktlari qurilib ta'minlandi. Respublika bo'yicha 4009 ta yoqilg'i quyish shoxobchalarining saniteriya gigiena punktlari bilan ta'minlanganlik darajasi 96,9 foizga etdi.

		ta'minoti, kanalizasiya)	
Moliyaviy qo'llab- quvvatlash	Turizm sohasini rivojlantirish uchun moliyaviy resurslar bilan ta'minlash	Mehmonxonalar va boshqa turistik ob'ektlarni qurish va modernizasiya qilish uchun subsidiyalar va imtiyozli kreditlar	turoperatorlar, turagentlar va joylashtirish vositalari uchun daromad solig'i stavkasini belgilangan stavkalarining 50 foiziga kamaytirish; - kamida 10 kishidan iborat hamda turar joy binolaridan kamida 5 kecha qoladigan chet el turistik guruhlar uchun O'zbekiston Respublikasiga turni tashkil etish va ularning qavysi vaqtda bo'lishi sharti bilan, turoperatorlarning havo va temir yo'l chiptalari uchun xarajatlarni ularning qiymatining 30 foiz miqdorida qisman subsidiyalash.
		Turizm sohasidagi kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab- quvvatlash	Turoperatorlar, turagentlar va mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi turizm sub'ektlari uchun: yuridik shaxslardan er solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulki solig'ini to'lashdan ozid qilish. Ushbu dasturga muvofiq imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratish orqali moliyalashtirish ko'zda tutilgan
Qonuniy qo'llab- quvvatlash	Turizmni rivojlantirishga ko'maklashuvchi normativ xujjatlarni ishlab chiqarish	Turizmni rivojlantirishga ko'maklashuvchi normativ xujjatlar joriy etish Xorijiy turistslar uchun vizaviy rejimni soddalashtirish Turizm sanoatiga investorlar uchun soliq imtiyozlari yaratish	6-ta O'zbekiston Respublikasi qonuni, 17- ta Prezident farmoni, 16-ta qarorlar qabul qilingan. 100 ga yaqin davlat uchun vizasiz rejim joriy etilgan bo'lsa, yana 55 ta davlat uchun elektron viza berishning soddalashtirilgan tartibi o'rnatildi. Turizm korxonalari uchun ijtimoiy soliq va aylanma soliq stavkalari 1 foiz, er solig'i va mol-mulk solig'i stavkalari 90 foizga kamaytirildi. O'zR VM 10.07.2020 y. 433-son qaroriga 10-ilova. Turizm sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malaksini oshirish tartibi to'g'risidagi Nizom.
Ta'lim kadrlarni tayyorlash	va Mehmondo'stlik sohasidagi kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish	Mutaxassislarni tayyorlash uchun ta'lim dasturlari va kurslarni qo'llab- quvvatlash	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 27 iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-238- son qarorining 7 chi bandiga muvofiq turizm yo'nalishida xalqaro talablarga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash va mutaxassislar malakasini

Xalqaro hamkorlik		oshirish tizimini joriy etish maqsadidat malakali kadrlar tayyorlash yo‘nalishida, xalqaro darajada tan olingan ta’lim dasturlarini «franshiza» asosida jalb qilish yo‘lga qo‘yish belgilangan.
	Xodimlarning malakasini oshirish uchun treninglar va seminarlar tashkil etish	Respublikadagi 35 ta oliy ta’lim muassasasida xalqaro standartlar asosida malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda
	Turizm sohasida xalqaro kelishuvlar va shartnomalar tuzish	2024-yil, 7-mayda Rossiya Iqtisodiy rivojlanish vaziri Maksim Reshetnikov va O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov turizm sohasida hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni imzoladilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2024 йил 5-6 iyun kunlari rasmiy tashrif bilan Turkiya Respublikasida bo‘ldi. Tashrif davomida tomonlar O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi va Turkiya Madaniyat va turizm vazirligi o‘rtasida turizm sohasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish to‘g‘risidagi Bayonnomani imzoladilar .
	Xalqaro turizm ko‘rgazmalari va forumlarida ishtirok etish	2024-yil 14-15 fevral kunlari O‘zbekiston delegatsiyasi Isroilda bo‘lib o‘tayotgan xalqaro sayyohlik ko‘rgazmasida ishtirok etdi. 2024-yil 27 may kuni Xitoyda “ITB China 2024” sayyohlik ko‘rgazmasida ishtirok etdi.
	Chet el investorlarni jalb qilish, qo‘shma korxonalar tashkil etish	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi PF-3217-son qarori bilan: Tadbirkorlik sub’yektlariga yangi mehmonxonalar va boshqa turistik infratuzilma ob’ektlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish uchun kapitalning zichligi va mavsumiy bandligini hisobga olgan holda kredit to‘lashning moslashuvchan shartlari va foizlarini nazarda tutgan holda uzoq muddatli (15 yilgacha) kreditlar ajratiladi. 2016 yil O‘zbekiston madaniy merosini saqlash, o‘rganish va ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon jamiyati tashkil etilgan. Jamiyat tomonidan bugunga qadar «O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida» eksklyuziv xalqaro

Madaniy me'rosni targ'ib qilish	Madaniy va tarixiy me'rosni saqlash va targ'ib qilish	Madaniy me'rosni saqlash dasturlarini ishlab chiqish	turkumining 60 jildi, «O'zbekiston me'moriy epigrafiyasi», «O'zbekiston madaniyati va fani olimlar asarlarida» turkumlarining bir qator jildlari nashr etildi, 60 dan ortiq filmlar suratga olindi, mamlakat ichida va xorijda ko'plab media-forumlar o'tkazildi. Hozirgacha loyiha 40 mamlakatdan 400 nafar olimni birlashtirgan. O'zbekiston madaniy merosini saqlash, o'rganish va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyati Prezidentning 25.12.2023 yildagi «Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-405-son qarori qabul qilindi.
Marketing va reklama	O'zbekistonning turizm salohiyatini xalqaro darajada targ'ib qilish	Xalqaro miqyosda keng ko'lamli reklama kompaniyalarini o'tkazish O'zbekiston milliy brendini turizm yo'nalishi sifatida yaratish va targ'ib qilish	O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashabbusi bilan mediaxolding jamoasi "O'zbekiston kaftingizda" B2B trening loyihasini yaratdi va ishga tushirdi . O'zbekiston MDHning birinchi yo'nalishlaridan biri bo'ldi va B2B ko'rinishida ilgari surish uchun Profi.Travel'da maxsus loyiha formatini tanladi. Ishga tushganidan buyon 1500 dan ortiq turizm mutaxassislari yangi loyiha bilan tanishib ulgurdi. VMning 6.05.2019 yildagi 373-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi to'g'risidagi nizomga ko'ra mahalliy ishlab chiqaruvchilarning sifatli mahsulotlarni ishonchli etkazib beruvchi ekanligini tasdiqlash uchun o'zbek brendlari va mahsulotlarini xorijda targ'ib qilish bo'yicha «Made in Uzbekistan» dasturini amalga oshirish, shu jumladan «Made in Uzbekistan» milliy ko'rgazmasini, tarmoq va mintaqaviy ko'rgazmalarni va tovarlar yarmarkalarini har yili o'tkazish, shuningdek xalqaro ko'rgazmalar va taqdimotlarda ishtirok etish orqali amalga oshirish belgilangan.

Manba: muallif tomonidan <https://invest.gov.uz/investor/tourism> [17] saytidan foydalanib tuzilgan

Bugungi globallashtirilgan dunyoda xalqaro mehmondo'stlik industriyasiga integratsiyalashuv ko'plab mamlakatlar uchun muhim vazifa hisoblanadi. Tarixiy va madaniy diqqatga sazovor joylarga boy O'zbekiston mehmondo'stlik industruyasini rivojlantirish va xalqaro sayyohlarni jalb etishga intilmoqda. Bu jarayonda zarur resurslar bilan ta'minlash, soha rivoji uchun qulay muhit yaratish orqali davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani asosiy o'rin tutadi.

Dastlab shuni ta'kidlash joizki, davlat ko'magi O'zbekistonning global mehmondo'stlik sanoatiga integratsiyalashuvining asosidir. Mamlakat hukumati turizm salohiyati va uning iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishdagi ahamiyatini e'tirof etadi. Shu bois yurtimizda mehmondo'stlik industriyasini rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan siyosatni faol amalga oshirmoqda.

XULOSA.

O'zbekistonning jahon mehmondo'stlik industriyasiga integratsiyasi kompleks yondashuvni talab qiladi va bunda davlat qo'llab-quvvatlovi muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, investorlar uchun moliyaviy rag'batlar, marketing yordami va vizaviy tartiblarni soddalashtirish xalqaro turistlar va investorlarni jalb qilish uchun qulay sharoit yaratadi. Kadrlarni o'qitish va malakasini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va xizmatlarning raqamlashtirilishi, shuningdek, ekologik barqarorlikka urg'u berish xizmat ko'rsatish sifatini va mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvi eng yaxshi amaliyotlarni o'zlashtirish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish imkonini beradi. Davlat qo'llab-quvvatlovi O'zbekistonda barqaror va rivojlanayotgan mehmondo'stlik industriyasini yaratishga ko'maklashadi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi va aholi farovonligini oshiradi. Uzoq muddatda bu chora-tadbirlar O'zbekistonga jahonning yetakchi turistik yo'nalishlari orasida munosib o'rin egallashiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, davlat qo'llab-quvvatlovi kuchaytirilishi va turizmni rivojlantirish bo'yicha strategik rejalar ishlab chiqilishi O'zbekistonning jahon mehmondo'stlik industriyasiga muvaffaqiyatli integratsiyasiga, ushbu muhim sohaning barqaror rivojlanishi va ravnaqiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "“O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida” gi PF-158-son Farmoni.
2. Aliyeva, M. T. (2007). Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. Darslik. T.: TDIU
3. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiya lari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26 b
4. Edgell.D.L, Swanson J.R, Allen M.D, Smith G. Tourism Policy and Planning Yesterday, Today, and Tomorrow, London - 2007, 440-p
5. Гасанов.Э.Э. Государственное регулирование и поддержка деятельности организаций в сфере туризма на региональном уровне. – Уфа: Уфимский государственный университет экономики и сервиса, 2014. – 152 с.
6. Кабушкин Н. И. Государственное регулирование туристской деятельности в РФ / Н. И. Кабушкин. – Минск: Изд-во БГЭУ, 2001. – 432 с. 59.
7. Коваленко В.В. Государственное регулирование туристской деятельности канд.экон.наук, с.н.с. кафедры экономики социальной сферы, Экономический факультет МГУ имени М.В.Ломоносова, г. Москва
8. Mamatqulov X.M. Turizm infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuf lar milliy jamiyati nashriyoti, 2011. 4-5-betlar.
9. Norchaev A.N. Turizm infratuzilmasida kutilayotgan o'zgarishlar va imkoniyatlar. "Iqtisodiyot va innovation texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019

10. Pardaev M.Q. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning echimlari. O'quv qo'llanma. – T.: «Iqtisod-moliya», 2008. - B. 133.
11. Рамадонова М. М., Макаренченко М. А. Государственное регулирование туристической деятельности //Альманах научных работ молодых ученых университета ИТМО. – 2016. – С. 211-213.
12. Tuxliev I.S., Hayitboev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik.O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 151-b.
13. Трофимов Е.Н. Государственная поддержка социального туризма: новые аспекты и решения // Высшее образование сегодня. 2015. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennaya-podderzhka-sotsialnogo-turizma-novye-aspekty-i-resheniya> (дата обращения: 13.07.2024).
14. Sharply.R. Tourism, Tourists and Society, London – 2018, 380-p
15. <https://www.atorus.ru/node/52405>
16. <https://stat.uz/uz/>
17. <https://invest.gov.uz/investor/tourism/>
18. Khidirova G. The world experience of providing economical development in the region //International Finance and Accounting. – 2018. – Т. 2018. – №. 5. – С. 11.
19. Koroleva, N., Achaeva, M., Pospelova, N., & Khidirova, G. (2023). World development of vocational training of social workers and system of social work and training at the regional level in Tatarstan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 449, p. 07003). EDP Sciences.
20. Хидирова Г. DOMESTIC TOURISM AS AN IMPORTANT FACTOR IN INCREASING HUMAN SPIRITUALITY //" Экономика и туризм" международный научно-инновационный журнал. – 2022. – Т. 2. – №. 4.
21. Хидирова Г. Особенности формирования внутреннего туризма в регионе //Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики. – 2022. – Т. 1. – №. 01. – С. 226-236.
22. Rixsimbayev, O., Gazieva, S., Toshmurodova, M., Khidirova, G., & Rustamov, N. (2022, December). Strengthen Digitalization Technologies on Regulation of Labor Migrant Workers Abroad. In *Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems* (pp. 504-510).
23. Г.Р. Хидирова Бухоро вилоятида инновацион технологиялар асосида туризм салоҳиятидан фойдаланишнинг асосий йўналишлари X Форум Экономистов, Механизмы и пути формирования инновационной экономики в свете реализации Стратегии действий по приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах Т.:2018, Б.360-366